

8. Жўраев Н.. Тарих – инсон, замон ва макон фалсафаси. // “Ўзбекистонда хорижий тиллар” илмий методик электрон журнал. №3. 2017. –Б. 233 б.
9. Шокиров М.Р. Тарихий тадқиқотларида тарихийлик ва мантиқийлик методларининг аҳамияти // Аҳмад ибн Ҳафс Кабир Бухорий мероси ва унинг илк шарқ Ренессанси ҳамда ислом фалсафаси илмий-назарий асосларини яратишдаги ўрни ва аҳамияти. Халқаро илмий-амалий анжуман тўплами. 2022 йил 16-17 июнь. – Бухорои шариф, 2022. – Б.640-643.

BO'SH VAQT DOIRASIDA MEHNAT VA HORDIQ NISBATINI MAQSADLI TA'MINLASHNING DOLZARBLIGI

Rustamov Farrux Rustam o'g'li
Sotsiologiya fanlari falsafa doktori (PhD)
Buxoro davlat pedagogika instituti
farruxrustamov7@gmail.com

Annotatsiya. Bugungi kunda “bo’sh vaqt” va “hordiq” tushunchalari shaxs kamoloti uchun muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Zamonaviy hordiq sanoat va shaharlashuv mahsuli sifatida yangi turdagi hordiq sifatida o’zgarib bormoqda. Ilmiy-texnik taraqqiyot mehnat unumdorligining o’sishiga va aholi turmush darajasining yaxshilanib borishiga olib keldi. Bu esa ish uchun zarur bo’lgan vaqtni qisqartirdi va bo’sh vaqt miqdorini sezilarli darajada oshirdi. Maqolada “bo’sh vaqt” va uni samarali tashkil etishda mehnat va hordiqning o’rni haqida so’z yuritiladi.

Tayanch so’zlar: Bo’sh vaqt, hordiq, mehnat, mehnat tarbiyasi, jamiyat, shaxsiy hayot, transformatsiya, «Self-development».

Абстрактный. Сегодня понятия «свободное время» и «отдых» приобретают все большее значение для развития человека. Современный досуг превращается в новый вид досуга как продукт индустриализации и

урбанизации. Научно-технический прогресс привел к повышению производительности труда и улучшению уровня жизни населения. Это сократило время, необходимое для работы, и значительно увеличило количество свободного времени. В статье говорится о «свободном времени» и роли труда и отдыха в его эффективной организации.

Ключевые слова: Свободное время, отдых, труд, трудовое воспитание, общество, личная жизнь, трансформация, «Саморазвитие».

Annotation. Today, the concepts of "leisure" and "recreation" are becoming increasingly important for personal development. Modern leisure is evolving as a new type of leisure as a product of industry and urbanization. Scientific and technological progress has led to an increase in labor productivity and an improvement in living standards. This reduced the time required for work and significantly increased the amount of free time. The article talks about "leisure" and the role of work and recreation in its effective organization.

Key words: leisure, recreation, labor, labor education, society, personal life, transformation, "Self-development".

Ma'lumki, insoniyat ijtimoiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida odamga ikki ehtiyoj kuchi katta ta'sir ko'rsatib kelgan. Birinchisi, moddiy, iqtisodiy, fiziologik ehtiyoj kuchi bo'lib, odamlarni asosan hozirgi, ya'ni kundalik zarur bo'lgan narsalarga ruju qo'yishga da'vat etib kelgan bo'lsa, ikkinchisi, ma'naviy, madaniy va ilmiy takomillashuvga bo'lgan ehtiyoj kuchi bo'lib, odamlarni bugungi kun ehtiyoji bilangina emas, balki ertangi kunni ham ehtiyoji bilan yashab, istiqbolni ham obod qilishga ko'proq urg'u berishga da'vat etuvchi ezigulik kuchidir. Ana shu ikki kuch ijtimoiy hayotimizning barcha jabhalari, xususan, aholi turli tabaqa vakillari, asosan, yoshlarning bo'sh vaqtini

tashkil qilish sohasiga ezigulik kuchini yo'naltirishga xizmat qilib, bu kuchlar odamlarning nafaqat dam olish usuli sifatida, balki yoshlarning ma'naviy va axloqiy rivojlanishining bugungi va ertangi ehtiyoji sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Yurtimizda jadal amalga oshirilayotgan islohotlar inson qadrini yuksaltirish hamda bo'sh vaqt doirasida mehnat va hordiq nisbatini maqsadli ta'minlashni dolzarblashtirmoqda.

Bo'sh vaqtda hordiqni mazmunli tashkil etish va undan foydalanishning muhim jihati har bir kishining birlamchi, ya'ni, maishiy, tibbiy, xavfsizlik hamda ikkilamchi, ya'ni, ma'naviy, intellektual va

madaniy ehtiyojlarini bosqichma-bosqich qondirish, ehtiyojlarni qondirish negizida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, odamlarning axloqiy va jismoniy rivojlanishiga e'tibor berishdan iboratdir. Zero, hordiq hodisasi nafaqat odamlarning dam olishi, balki ularning sog'ligini saqlash va mustahkamlash, madaniy saviyasi va dunyoqarashni o'stirish, axloqiy va estetik tarbiyalashning muhim shartidir. Chunki faqat hordiqni ongli tashkil etish jamiyatning ichki kuchlarini faollashtirish, inson kapitalini rivojlantirishga yo'l ochadi. Binobarin, shaxsning barkamollik, yetuklik mezonini moddiy va ma'naviy ehtiyojlarning

nechoq'li qondirib borilishi, ijtimoiy va individual maqsadlarning hayot o'zgarishlariga mos kelishi va mehnat natijalari bilan uyg'un bo'lishiga bog'liqdir.

Tabiiyki, hordiq madaniyatini tarkib toptirish uchun yoshlarda sotsiologiyadagi muhim yondashuv, ya'ni, qiziqishdan ehtiyojga ehtiyojdan manfaatga evolyutsiya bo'lish nazariyasiga tayanishni zarur deb hisoblaymiz. Bu nazariyani amalga oshirish uchun mehnat tarbiyasi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Quyida mehnatga natijador yondashuv asosida inson salohiyati yuksaltirish sxemasi jadval shaklida e'tiboringizga havola etilmoqda.

Yoshlarni bo'sh vaqtdan unumli foydalanib hordiq madaniyatiga erishishlarida mehnat tarbiyasining roli

Yoshi	Mehnat tarbiyasini maqsadli yo'lga qo'yish orqali hordiqdan qadriyatini shakllantirish	Bo'sh vaqtdan foydalanish yo'llari
3-5 yosh	Mehnat jarayoniga moyillik kayfiyatini shakllantirish.	Bolaning aqliy salohiyatini oshirish uchun har xil o'yinlar tashkil etish.
6-7 yosh	Uy yumushlarini bajarishga ko'maklashtirish.	Narsalarni joy-joyiga qo'yishga odatlantirish va bu borada ko'nikmalarni shakllantirishga erishish.
8-12 yosh	Uy yumushlarini mustaqil tarzda bajarishga ko'niktirish.	Qiziqishlar bo'yicha aqliy, sport va madaniy to'garaklarga ishtirok etishishini ta'minlash.

13-16 yosh	Kasbiy salohiyatni puxta egallashi yoshlarni 1+1, 1+10 tamoyillari asosida shogirdlikka jalb etish.	Aqliy, sport va madaniy muloqotlarni doimiy tashkil etish uch avlod uchrashuvlarni tizimli yo'lga qo'yish.
17-18 yosh	Mas'uliyat va javobgarlik asosida mustaqil faoliyat yuritish ko'nikmalarini hosil qilish.	Natijaga erishish uchun turli xil kurslar va to'garaklarga jalb etish va tanlovlarda g'oliblik sari intilishni rag'batlantirish.

Bugungi kunda yoshlarni bolalikdan mehnat tarbiyasiga maqsadli jalb qilish orqali bo'sh vaqtdan unumli foydalanib tarbiyalash, nafaqat qishloq, balki shahar joylarida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, bugungi kunda yoshlarning bo'sh vaqti o'tgan asrning 80 yillariga nisbatan ko'proq bo'lib, ota-onalar va ta'lim muassasalari, tarbiya bilan shug'ullanuvchi boshqa tashkilotlar mazkur imkoniyatdan samarali foydalanishni yo'lga qo'yishlari lozim.

Bo'sh vaqt va hordiq qiymatini aniqlash uchun «Shaxsiy hayot tarixi» metodi asosida Respublikamizning 3ta hududida (Buxoro, Samarqand, Farg'ona) ekspert so'rovi o'tkazildi. Ekspert so'roviga 78 nafar respondent jalb etildi. Shundan 2 nafari bo'yicha xulosalarni keltiramiz:

Navoiy viloyati Qiziltepa tumanida tug'ilgan, hozirda Buxoro viloyati Qorovulbozor tumani

Tinchlik MFY Ulug'bek ko'chasi 31 uyda istiqomat qilayotgan G'iyosova Shamsiya Vafoyevnadan olingan intervyu: «Mening bolalik davrim 50 yillarga to'g'ri keladi. Shu paytlarda sahar bilan soat 4-5 larda turib, uyimizda boqilayotgan 8 ta qora mol va 18 ta qo'ylar uchun dala va ariq bo'ylaridan borib o't-xashak yig'ib, chorva mollariga qarar edim, maktabdan so'ng esa uy yumushlari bilan band bo'lar edim, kechki payt sham yorug'ida yoki pilta-chiroq yorug'ida dars qilar edim, kuz oylarida esa maktabda o'qishlar to'xtatilgan bois paxta yig'im-terimida ishtirok etar edim. Qish faslida kun bo'yi esa asosan o'tin maydalash, pechka yoqish va suvlarni isitish ishlari bilan band bo'lar edim. Oilada 8 nafar ukam bo'lgani uchun ularni kiyintirish, yuvintirish, ovqatlantirish uchun onamga yordam berar edim. Bahor oylarida esa ipak qurtini parvarish qilish, ekinlar ekish, yoz oylarida ekinlarga qarash va mevalarni

yig'ishtirib olish, kuz va qishning uzun tunlarida ukalarimga kiyim-kechak tikish bilan mashg'ul bo'lar edim».

G'iyosova Shamsiyaning 12 yoshli nevarasi Rustamov Shohrux bilan o'tkazilgan intervyu: «Men Rustamov Shohrux Buxoro shahridagi O.Eshonov ko'chasi 10/1 uyning 56 xonadonida istiqomat qilaman. Men har kuni soat 7 larda turaman. Nonushta qilib maktabga boraman va maktabdagi mehnat va fan to'garaklariga qatnashaman. Maktabdan kelib 1soatcha televizor ko'raman yoki uxlayman. Seshanba va payshanba kunlari soat 3 da rasm to'garagiga, dushanba, chorshanba va juma kunlari rus tili to'garaklariga boraman. Har kuni to'garakdan kelganimdan so'ng 2 soat ko'chadagi o'rtoqlarim bilan futbol hamda boshqa o'yinlar o'ynayman. Qish paytidagi bo'sh vaqtlarimda televizorda kino va multfilmlar tomosha qilaman. Men har doim kechki ovqatdan keyin dars tayyorlayman. Yoz oyida oromgohga boraman va yoz bo'yi qishloqdagi qarindoshlarimning uyiga borib kelib turaman.»

Yuqoridagi nevara va uning buvisi shaxsiy hayot tarzini bo'sh vaqt nuqtai nazaridan tahlil qilsak, bugungi kunda mehnat tarbiyasidan ko'ra ham bo'sh vaqt tarbiyasi bilan ko'proq shug'ullanish muhim ahamiyatga egaligi yanada

oydinlashadi. Chunki yuqorida keltirgan misolimizdagi nevara xonadonida yer chopilmaydi, chorva mollari boqilmaydi, aksincha zamonaviy axborot texnologiyalari va maishiy texnika vositalardan keng foydalaniladi, kommunal xizmatlar ko'rsatish nisbatan rivojlangan. Bu bugungi yoshlarning bo'sh vaqtining sezilarli darajada ortganligini ko'rsatadi. Xuddi shuningdek, tadqiqotda ishtirok etgan 76 nafar buvi va nevaralar turmush tarzida aynan shunga yaqin natijalar olindi.

Yana bir ijtimoiy holat – bu 60-70 yillar bolalari bilan hozirgi davr bolalari o'rtasida hayotga munosabat, dunyoqarash, mehnat jarayoniga ishtirok etish va ularning bo'sh vaqtida katta farq mavjudligini ko'ramiz. Shuning uchun bugungi kunda bola tarbiyalashdagi yondashuvda ularni mehnat jarayonida tarbiyalashdan ham ko'ra bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazish bilan shug'ullanishni davrning o'zi talab etyapti.

Bo'sh vaqt davomida bolalar, o'smirlar va yoshlar harakatini va faoliyatini samarali tashkil etib, ularni ko'proq bilim olishga yo'naltirsak, tajribaga, boy dunyoqarashga erishtirsak, bo'sh vaqt qiymatidan yuqori darajada foydalanishga erishamiz. Agar bolalar, o'smirlar va yoshlarning faoliyatini tashkil etishda bo'sh vaqt

hodisasini hayotning oddiy va odatiy holati sifatida qaralsa, bo'sh vaqt qiymatini anglab yetmagan bo'lamiz.

Bo'sh vaqt kishining ijtimoiy mehnatga samarali tayyorgarligiga erishish, takroriy faoliyatga sifat jihatidan yangilangan holda qaytishiga imkon yaratadi. Zero, hordiq mohiyat e'tiboriga ko'ra, shaxsning har tomonlama takomillashuvi, bilim darajasini oshirish, ijtimoiy – siyosiy hayotga qatnashish, dam olishi uchun kerak bo'ladigan ishdan tashqari vaqtdir.

Jamiyatda bo'sh vaqt ko'payishi butun dunyoda intellektual-texnologik transformatsiya hodisasi bilan bog'liqdir. Shu boisdan ham insoniyat oldida quyidagi ikki muammoni ratsional hal etish vazifasini qo'yimoqda.

1. Ish vaqtining keskin qisqarishi va odamlarda bo'sh vaqt zaxirasining ko'payishini hisobga olish;

2. Samarali boshqarilmaydigan bo'sh vaqtni maqsadli boshqariluvchi vaqtga transformatsiyalash.

Zero, hordiq insonni nafaqat rekreativ, balki, ma'naviy intellektual kamol topishiga, uning qobiliyatini rivojlantirishga, shu tariqa butun jamiyatning moddiy va ma'naviy kuch-quvvatini yanada oshirishga xizmat qilsagina, u

jamiyat uchun haqiqiy ijtimoiy boylikka aylanadi. Milliy taraqqiyotimizning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan yoshlar o'z bo'sh vaqtini o'qish, o'rganish, aqliy va jismoniy jihatdan takomillashish, ilmiy- texnik va badiiy ijod, sport bilan uzluksiz shug'ullanishga sarf qilganlaridagina, «Self-development», ya'ni, o'zlarini doimiy takomillashtirishga erisha oladilar.

Shu boisdan ham madaniy-ma'rifiy muassasalarning dam olishni tashkil etish borasidagi tizimli faoliyatni yoshlarni mehnatga ongli munosabatini tarbiyalashning ma'rifiy o'chog'i deb hisoblash mumkin. Binobarin, intellektual, ma'naviy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishish kishilarning mehnat g'ayrati va ijtimoiy faolligi zamiridagi jamiki ijodiy kuchlarni to'la safarbar etish bilan bog'liqdir.

Hordiqni mazmunli tashkil etish jarayoni bo'sh vaqtning iqtisodiy, ma'naviy va ijtimoiy imkoniyatlarini inson kapitalini yuksaltirishga yo'naltirish, turli hunar va kasb sirlarini puxta o'zlashtirish, uzluksiz ta'lim olishga intilish, odamlar aro munosabatda affiliativ intilishni rag'batlantirish negizida jamiyatda ahillik muhitini mustahkamlashdan iboratdir

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va bandligiga ko‘maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 6208-PF-sonli Farmoni. 2021 yil 20 aprel.
- 2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-92-sonli qarori. 2022 yil 19 yanvar.
- 3.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, «O‘zbekiston» nashriyoti 2017 y.
- 4.Bekmurodov M. Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi. –T.: «Yoshlar nashriyot uyi», 2020.
- 5.Вопросы КПР. Л., ЛГИХ, 1973.
- 6.Вопросы философии. Журнал, 3-сон, 1983.
- 7.Иконникова С.Н. Диалог о культуре. Л., 1987
- 8.“O‘zbek milliy ensiklopediyasi”. 2 tom, Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent, 2001.